Mustafoyeva Mushtariy Zohid qizi

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Sharq svilizatsiyasi va tarix fakulteti

Fors- ingliz guruhi 2- bosqich talabasi

Ogahiy ĝazallarida ma'shuqa gòzalligining gullar vositasida Ifodalanishi

Annotatsiya: Bilamizki, she'riyatda gul yoki o'simliklar nomi ko'chma ma'noda shaxs sifatini ifodalab kelishi ko'p kuzatiladigan an'anaviy poetik hodisalardan biridir. Badiiy obraz yaratishda gul obrazidan foydalanish, gul va shaxs orasidagi ma'lum o'xshashliklarga asoslanadi. Ushbu maqolada ham Ogahiy ijodining yuqori bosqichlari yoritib o'tilgan. O'z davrining yetuk ijodkorlari she'riyatida gul obrazlariga to'xtalib o'tilganini ko'rish mumkin. Ma'shuqaning vaslini kuylash borasida gul obrazidan foydalangani uni xarakter- xususiyatlarini gulga qiyos etilgani maqola mazmunini ochib bergan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Ustina radifli g'azali, nazm ahli, badiiy mahorat, [1]yozma adabiyot, gul obrazi.

Bilamizki, ulug' Alisher Navoiy so'z martabasini juda ulug'lagan edi. Uningcha so'z daryosida suzgan g'avvos ma'ni durini changallashi kerak. Quyosh nurini obod va vayrona yerga sepaverganiday , so'z ham obod va vayrona ko'ngilga borishi lozim. Nazm ahli nazm masnadida o'ltirganda, qo'shiq, she'r, musiqa va raqsning ruhga beradigan shavq- zavqini shoir shunday tasvirlaydi.

Nazm biyik masnadida o'lturub,

Olima nazm ahli tuman ming turib.

[1] Алавия музайяна узбек халк кушиклари

Bazmda shohona yasab sozu barg ,

Boshim uzra egri qo‘yib nimtark.

So‘z mayidan olima doriyoyi jarf

Ilgima zavraq kabi jomi jigarf

Har nafas aylab to‘la ul jomni

Sipqorib ul bodaiy gulfomni.

Ko‘plab shoirlar ijodida, she’riyatda ma’shuqa vaslini vasf qilish kuzatiladi. Biri ma’shuqani oyga qiyoslasa, biri zilol suvga qiyoslaydi. Yana biri esa gulga o‘xshatadi.Shu ijodkorlardan biri Ogahiydur. Navoiy hazratlari aytganidek, Quyosh ham nurini obod va vayrona ko‘ngilga borishi lozim.Ogahiy ham so‘zni uvol qilmasdan uni ma’shuqa vaslini kuylashga , gulga nisbat berishga sarf etdi. Mumtoz adabiyotda Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy kabi shoirlar ham ijodlarida gul obraziga tez-tez murojaat qilganlar, shu o‘rinda Atoyining g’azalidan go‘zal tasvirli baytiga murojaat qilamiz.

Uyotqondin qizil gul ko‘nglaki g’arqi araq bo‘lsin,

Yuzi gulshan sari gulgun qiyo bog’in beza- beza

Bobur ijodida ham gul obrazi yorqin namoyon bo‘ladi. Yorni to‘gridan- to‘g’ri ‘‘gul ‘‘ deb murojaat qiladi:

To sabo zulfini ul gulning parishon ayladi

Jon bila aqlu ko‘ngulni yelga berdim sovurub[2]

Ogahiy o‘zining ‘‘ ustina ‘‘ radifli g’azalida ham yorni gul yuzli deb ta’riflaydi va shunday baytni keltiradi.

[2] https//n.ziyouz.com

Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,

Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina

Ul gul yuzi shavqi birla shaydo ko'ngul shomu sahar

Bulbuldek aylar yuz navo ming na'vi faryod ustina

Ogahiy ma'shuqa vasfini ajoyib sifatlar bilan ifodalaydi. Uning ko'zlarini qotilga qiyoslaydi, xuddiki, uning ko'zlari qotil kabi jonni oluvchidir. Hatto uni ko'rgan yor hastaga aylanadi, endi unga jon kirishi noma'lum. Yorning gul yuzi yorni shomu sahargacha shaydo qildi. Saharda esa bulbul sayrashi oshiq holini afgor qildi.Demak, shoir ma'shuqa vaslini gulga qiyos etib bir ishq bobida, hijronida kuygan obraz yaratmoqchi bo'lgan. O'zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan zabardast shoir Ogahiy she'riyatida gul obrazlari g'oyatda rang- barang bo'lib ularning ayrim belgi va xususiyatlari she'riyatda ramzga aylanib ketgan. Ularni o'rganish esa shoir dunyoqarashi, badiiy mahorati, betakror iste'dod qirralarini teran bilib olishga yordam berishi barobarida xalqimiz badiiy tafakkuri tadrijini folklor va yozma adabiyotning o'zaro hamkorlik va aloqadorlik asosida rivojlanib kelganligini anglashga ham xizmat qiladi.[3] Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, badiiy adabiyotda gul, gullar obrazi ma'shuqa vaslini kuylash uchun qo'llaniladi. Unda ijodkor badiiy mahorati ochib beriladi. Shunindek, gullar sof muhabbat ramzi, oshiq uchun dil izhorining vositasi bo'lib keladi. Gul kabi qiyoslashi, uni eng go'zal gullardan ustun ko'rishi shoir qalamining qanchalik o'tkir ekanligini ifodalaydi. Hatto gullar vositasida ma'shuqa xarakter xususiyati ochib beriladi. Yorning injiqligi, qaysarligi, go'zalligi kabi sifatlar turli gullar voitasida yoritib o'tiladi. Maqola davomida shuni o'rgandimki, Ogahiy ijodi rang-barang, unda o'xshashliklar yo'q hamda bir- birini takrorlamaydigan jihatlar o'zgachadir.

[3] Muhammad Rizo Ogahiy O 'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni Toshkent 2020 – yil 20- may

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Алавия Музайяна узбек жалк кушиклари тошкент 1974
2. https//n.ziyouz.com
3. Muhammad Rizo Ogahiy O‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni Toshkent 2020- yil 20- may

WORDLY KNOWLEDGE